

ELEKTRON KITOBLAR VA QOG'ÖZLI KITOBLARNI AFZALIKLARI VA KAMCHILIKLARI.

*Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti
boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Vohidova Farangiz bonu Sardorbek qizi

Ustozi : Qanoatova Nazokatxon.

Annontatsiya: Ushbu maqolada zamонавиу ахборот тeхнологиялари ривожланishi natijasida paydo bo'lgan elektron kitoblar va an'anaviy qog'ozli kitoblar o'rtasidagi farqlar, hamda kamchiliklar tahlil qilinadi. Elektron kitoblarning qulayligi, ko'p miqdordagi materiallarning bir qurilmada saqlash imkoniyati, ekalogik jihatdan tejamkorligi va tezkor yetkazib berilishi kabi jihatlar zamонавиу o'quvchilar e'tiborini tortmoqda . Biroq, tadqiqoqlar shuni ko'rsatadiki, bosma kitoblar bilan o'qish va ma'lumotni eslab qolish darajasi yuqoriq bo'lishi mumkin. Shuningdek , qog'ozli kitoblar kitobxon va matn o'rtasida kuchliroq hissiy bog'lanishni ta'minlaydi, bu esa madaniy va estetik qadiriyatlar nuqtai nazardan muhimdir. Shu bois, maqolada ikki turdagи kitoblarning jamiyatda tutgan o'rni, ta'lif tizimiga ta'siri hamda ularning kelajakdagi istiqbollari keng muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Elektron kitoblar, qog'ozli kitoblar, тeхнологиялар, innovatsiyalar, qulayligi, tejamkorligi, kamchiligi.

Kirish. So'ngi yillarda raqamli texnologiyalarni rivojlanishi bilan kitob o'qish madaniyati sezilarli o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Xususan elektron kitoblar bozori jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Biroq elektron kitoblarning ommalashuviga qaramay , bosma kitoblar o'qish tajribasida muhim o'rин tutishda davom etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bosma matnlarni o'qish inson miyasida axborotni yaxshiroq idrok etish va eslab qolishga yordam beradi. Shuningdek , elektron kitobni o'qishni ba'zi kamchiliklari mavjud. Ekran orqali o'qish paytida kitobni chuqr tushunish va e'tibor bilan o'qish qiyinlashishi mumkin. Bundan

tashqari , ekran orqali o'qish ko'pincha yuzaki bo'lib , bu kitobni chuqur tushunishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Oxirgi yigirma yil ichida adabiy dunyoda elektron kitoblarning ommaviyligi ortib borayotgan paradigma o'zgarishiga guvoh bo'ladi. Ushbu siljish shunchaki formatdagi o'zgarish emas , balki iste'molchilarni yozma tarkib bilan o'zaro munosabatini yanada ko'proq o'zgartirishini anglatadi. Ushbu o'zgarishlarni tushinish ushbu raqamli formatlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shgan turli xil texnologik, madaniy va iqtisodiy omillarni o'rganishni talab qiladi.

Raqamli texnaloyiyalar hayotning barcha sohalariga kirib borayotgan zamonaviy dunyoda elektron kitoblar nashriyoti tobora dolzarb bo'lib bormoqda . Birinchi shaxsiy kompyuterlarning va internetlarning paydo bo'lishi bilan rivojiana boshlagan ushbu yo'nalish bugungi kunda sayyoramizning barcha burchaklarni qamran olgan to'lawonli sanoatga aylandi. O'znekiston , boshqa ko'plab mamlakatlar singari, bu jarayondan chetda qolmadi . Elektron nashrlar kitoblar olamida yangi davrni ifodaladi , mualliflar , noshirlar va albatta kitobxonlar uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Ular odamlarga kitoblarni istalgan joyda va istalgan vaqtda , turli xil qurilmalardan fodalangan holda , kitobxonlarga ixtisoslashgan elektron o'qish moslamalaridan tortib smartfon va planshetlargacha foydalangan holda o'qish imkonini beruvchi qulaylikni taklif etdi.

Raqamli texnaloyiyalarning paydo bo'lishi va keyingi evalutsiyasi bozorning ushbu o'zgarishida muhim ro'l o'ynadi. "Amazon's Kindle" va "Barnes&Noble's Nook" kabi elektron kitoblarning rivojlanishi an'anaviy o'qish tajribasini takrorlaydigan va qaysidir ma'noda yaxshilaydigan platformani taqdim etdi. Ushbu qurilmalar ko'chma , sozlanishi shrift o'lchamlari va minglab kitoblar uchun saqlash hajmi kabi afzaliklarni taqdim etib, o'qishni yanada qulaylashtiradi. Elektron kitoblar 20 asr oxirida paydo bo'lgan yaqinroq tarixga ega. Yozilgan birinchi elektron kitob 1971-yilda Maykl.S Xart tomonidan yaratilgan AQSH Mustaqillik deklaratsiyasining raqamlashtirilgan versiyasidir.

Bu madaniy asarlarni raqamlashtirish va arxivlashga qaratilgan Gutenberg loyihasining boshlanishi edi. Elektron kitoblarning tijorat salohiyati 1990-yillarda internetning paydo bo'lishi va birinchi elektron kitoblarning rivojlanishi bilan amalga oshirildi. Laura Manley va Robert P . Holley kabi olimlar Ereaderlar haqida shunday deydi: "Sony Data Discman" va "Softbook" kabi ushbu dastlbki qurilmalar zamonaviy elektron o'quvchi uchun uchun asos yaratdi. Bu zamonaviy raqamli dunyoning imzosi ".

Biroq, 2007 " Amazonning Kindle"ning ishga tushirilishi elektron kitoblarni asosiy bozorga olib chiqdi. Kindle qog'ozga o'xshash display, uzoq batareya quvvati va keng sarlavhalar kutubxonasiga tezkor kirish imkonini bilan misli ko'rilmagan foydalanuvchi tajribasini taqdim etdi.

Kitobni paydo bo'lish tarixi yozuvning yaratilishi va shalkllanishi jarayoni bilan uzviy bog'liq .

Yozuvning to'zilish xususiyatlari (belgilar tizimi, ularning joylashish tartibi) , yozuv materiallari va qurolining o'ziga hos tomoni va boshqa ma'lum daraja kitob tuzulishini ham belgilab berdi. Qadimgi Rim , Yunoniston , Misr va O'rta Osiyoda kishilar tosh , palma daraxti barglari, sopol va boshqa materialarga yozib fikr almashganlar . Har bir kitob o'nlab shunday materiallardan tayyorlangan plitalardan iborat bolib, og'irligi bir necha kg bo'lgan. Yozuv materiallari sifatida papirus o'simligi ishlatalishi (miloddan avvalgi 4-3 ming yiliklarda) bilan o'rama kitoblar paydo bo'ldi. Bunday kitoblarning uzunligi o'rtacha 10m atrofida bo'lib Ingichka yumshoq tayoqlarga o'ralgan va maxsus charm va yog'och g'iloflarda saqlangan.

Sharq mamlakatlari , Qadimgi Rim va Yunonistondagi ko'pgiba nodir asarlar papirusga bitilgan .

Miloddan avvalgi ll asrga kelib kitob materiali sifatida pergament(teri) dan foydalanish keng tarqaldi .

Dastlab bunday kitob o'rama holda saqangan . 2- 4 asrdan boshlab Qadimgi Rimda huddi hozirgi kitoblarning varoqlari singari buklab , tikib tayyorlangan va bir - biriga biriktirilgan , muqovali kitoblar - kodeks paydo bo'ldi.

Ular dastlab papirus so'ng , pergamentga yozilgan. Bunday kitoblar og'ir va besunaqay edi . 6 - asrdan boshlab kodels shakli asosida hozirgi ko'rinishdagi kitoblar paydo bo'ldi . Teriga ishlangan noyob kitoblardan biri - Mus - hafi Usmon Qur'onidir. Mazkur qo'lyozma kitob Amir Temur tomonidan Sammarqandga olib kelingan.

13 asrdan yevropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qoldi . Qog'oz kitobning ko'payishiga ko'payishiga va tarqalishiga yangi imkoniyat ochdi. Kitoblarni bezash alohida ahamiyat berildi. Ularning sahifalariga turli miniatyuralardan , hoshialariga bezashlar ishlana boshladi. Asta sekin xattotlik (kalligrafiya) , muqovasozlik kabi kasblar ajralib chiqdi. Ayniqsa o'rta osiyoda o'rta asrlarda xattotlik san'ati keng rivojlandi. Mashhur xattotlarning ko'p avlodlari kitob tayyorlash usulini - materiallar, siyoh , xat ko'chirish texnikasini takomillashtirib birdilar.

10 - 12 asrlarda movarounnahrda muayyan soha sifatida shakllangan kitobat san'ati 14 - 15 asrlarda yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Har bir kitob qog'ozidan tortib muqovasigacha , siyohdan to bo'yoqlari- yu zarhaligacha ma'lum me'yordagi modda , reja va qoida asosida tayyorlandi hatto kitobdan xushbo'y hid anqib turishi uchun ba'zan siyohga gulob yoki anbar qo'shilardi.

COVID-19 kabi pandemiyasi kabi global voqealar ham bozor tendensiyalariga ta'sir ko'rsatadi.Ushbu davrda , shuningdek, pandemiya davrida davrida iste'molchilar manfaatlarining o'zgarishini aks etiruvchi ta'lim va o'z o'ziga yordam beradigan elektron kitoblar iste'mol qilishning o'sishi kuzatildi. Noshirlar yoki mualliflar nashr etish platformalarining imkoniyatlaridan foydalanib , an'anaviy nashriyotlardan voz kecha boshlagan bir davrda nashriyotlar o'zlarini ham online tarzda kitoblarni taqdim eta boshladi. Iste'molchilarining o'wish va izlashda odatlari raqamli formatlarni qabul qilish bilan rivojlandi.

•Interfaol va kengaytirilgan elektron kitoblar: Multimedia elementlari, interaktiv kontent va kengaytirilgan haqiqat funksiyalarini o'z ichiga olish elektron kitoblarni , ayniqsa , ta'lim va bolalar kitoblari uchun yanada jozibador qilishi mumkin.

• Ta'lif muassasalari bilan hamkorlik :o'quv materiallarini raqamli formatda taqdim etish bo'yicha maktablar va universitetlar bilan hamkorlik o'sish uchun yangi kanallarni ochish mumkin.

• Al va Machine learning sohasida yutuqlar: Shaxsiyatlashtirilgan tavsiyalar , ovoz yordamida o'qish va yaxshilangan foydalanuvchi tajribasi uchun sun'iy intellektdan foydalanish yangi foydalanuvchilarni jalb qilishi va mavjudlarini saqlab qolishi mumkin.

Xulosa: qilib aytganda , elektron kitoblar bozori texnologik taraqqiyot, bozorini kengaytirish va innovatsion kontent strategiyalari asosida o'sish uchun imkoniyatlarga ega. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish orqali manfaatdor tomonlar nafaqat rentabilligni oshirishlari , balki raqamli o'qish tajribaning rivojlanishiga ham hissa qo'shishlari mumkin. Elektron kitoblarning an'anaviy nashriyot sanoatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga muammolar va imkoniyatlarni taqdim etdi.

Elektron va qog'ozli kitoblar o'rtasida taqqosloviy tahlil shuni ko'rsatadiki , har ikkala formatning O'ziga xos afzaliklari va kamchiliklari mavjud . Elektron kitoblar zamonaviy texnologiyalar yordamida keng qulayliklar yaratadi: ular arozonroq , qulay ko'p miqdorda saqlanishi mumkin , osongina izlash imkonini beradi va ekologik jihatdan qog'oz sarfini kamaytiradi. Shu bilan birga , ko'zga salbiy ta'siri , qurilma va elektr manbaiga bog'liqligi uning kamchiligi hisoblanadi.

Qog'ozli kitoblar esa o'qish jarayonida ko'proq diqqatni jamlashga yordam beradi , ko'zga zarar yetkazmaydi hamda kitobxon bilan hissiy aloqani mustahkamlashi mumkin. Biroq ularning narxi nisbatan yuqori , og'irligi va joy egallashi hamda ekologik ta'siri (daraxtning kesilishi) salbiy omil hisoblanadi.

Ikkalasini ham o'rgangan holda xulosa qilsak, har ikkala formatni ham maqsadga muvofiq va vaziyatga qarab tanlash zarur. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan hozirgi davrda elektron kitoblar qulaylik nuqtai nazarda ustunlik qilsa-da , an'anaviy kitoblarning o'rmini to'liq bosa olmaydi. Shu sababli kitobxonlar shaxsiy ehtiyojlari va o'qish sharoitlariga qarab , har ikki turdag'i kitoblardan oqilona foydalanishlari maqsadga muvofiqli.

Foydallanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Laura Monley & Robert P , Holley .History of the Ebook: The changing Face of books , technical Servicas Quarterly , 24:4 , 2012. 305 bet .
2. Murodov A , o'rta osiyo xattotlik san'ati tarixidan , T,1971